



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil yanvar-iyun



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-iyun)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 64,3 %**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
3 787,8 ming so'm**




**Jami korxonalarda
xizmatlar sohasidagi
korxona va tashkilotlar
ulushi – 76,0 %**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1-iyul holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyun)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-iyul holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024-y. 24 787

2023-y. 25 817

2022-y. 29 121

2021-y. 22 953

2020-y. 17 206

Soni, birlikda

2024-y. 2 746

2023-y. 3 029

2022-y. 4 614

2021-y. 3 129

2020-y. 2 380

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-iyun)

2024-y. 69,8 %


Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

58,8 %

2020-y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024-yil yanvar-iyun)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%</i>	O'sish sur'ati, <i>%</i>
Samarqand viloyati	16 017,8	100,0	112,9
Samarqand sh.	6 880,0	42,9	118,2
Kattaqo'rg'on sh.	442,7	2,8	112,2
Oqdaryo	520,3	3,2	107,6
Bulung'ur	427,3	2,7	107,5
Jomboy	655,3	4,1	108,0
Ishtixon	552,4	3,4	107,4
Kattaqo'rg'on	563,3	3,5	107,5
Qo'shrabot	296,9	1,9	107,3
Narpay	491,6	3,1	107,4
Payariq	669,0	4,2	107,7
Pastdarg'om	1 084,1	6,8	109,5
Paxtachi	303,9	1,9	107,3
Samarqand	1 110,3	6,9	115,9
Nurobod	306,9	1,9	107,8
Urgut	1 071,7	6,7	108,4
Toyloq	642,1	4,0	109,7

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi) ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining ko'rsatkichlari

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-iyun)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Samarqand sh.	11 702,6	115,8 %
Kattaqo'rg'on sh.	4 655,5	110,7 %
Samarqand	4 047,6	113,5 %
Jomboy	3 438,2	105,3 %
Oqdaryo	2 988,7	105,2 %
Toyloq	2 888,5	107,0 %
Pastdarg'om	2 815,0	107,1 %
Payariq	2 434,6	105,1 %
Narpay	2 153,2	105,5 %
Bulung'ur	2 102,8	105,0 %
Qo'shrabot	2 083,6	105,2 %
Ishtixon	1 992,3	105,1 %
Paxtachi	1 988,6	105,7 %
Kattaqo'rg'on	1 909,0	105,4 %
Urgut	1 906,2	105,7 %
Nurobod	1 880,4	105,7 %

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-iyun)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	16 017,8	100,0	112,9
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	797,6	5,0	116,6
Moliyaviy xizmatlar	2 594,2	16,2	112,6
Transport xizmatlari	3 491,4	21,8	111,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 131,7	19,6	110,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	821,3	5,1	103,1
Savdo xizmatlari	4 180,0	26,1	114,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	392,4	2,5	115,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	868,8	5,4	125,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	363,2	2,3	123,4
Ijara xizmatlari	472,3	2,9	111,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	468,6	2,9	109,7
Shaxsiy xizmatlar	721,3	4,5	109,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	229,1	1,4	107,4
Boshqa xizmatlar	617,6	3,9	105,9


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **89,7** foiz.

Samarqand shahrida transport xizmatlari hajmi **1 187,4** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **116,6** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-iyun)




Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	1 187,4	116,6
Kattaqo'rg'on sh.	103,4	120,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	137,2	108,1
Bulung'ur	98,6	107,8
Jomboy	184,9	108,4
Ishtixon	151,5	107,8
Kattaqo'rg'on	156,4	107,6
Qo'shrabot	83,0	107,5
Narpay	147,1	108,3
Payariq	157,0	108,5
Pastdarg'om	245,2	107,5
Paxtachi	84,0	107,5
Samarqand	266,8	108,7
Nurobod	71,1	107,3
Urgut	258,8	108,4
Toyloq	159,0	108,4

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 131,7** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **19,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	870,7	112,2
Kattaqo'rg'on sh.	101,3	122,4
tumanlar:		
Oqdaryo	136,2	109,7
Bulung'ur	97,4	109,4
Jomboy	182,9	110,0
Ishtixon	150,1	109,4
Kattaqo'rg'on	153,2	109,2
Qo'shrabot	80,5	109,0
Narpay	145,3	109,9
Payariq	153,1	110,1
Pastdarg'om	239,8	108,6
Paxtachi	78,9	109,0
Samarqand	261,0	110,3
Nurobod	70,7	109,0
Urgut	253,9	110,1
Toyloq	156,7	110,0

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-iyun)




2024-yil yanvar-iyun oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **73,3** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **70,3 %**.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	1 261,7	119,9
Kattaqo'rg'on sh.	97,9	112,8
tumanlar:		
Oqdaryo	39,7	100,4
Bulung'ur	68,5	100,1
Jomboy	77,4	105,1
Ishtixon	62,2	102,2
Kattaqo'rg'on	49,0	100,4
Qo'shrabot	20,1	100,9
Narpay	37,9	101,2
Payariq	176,9	104,6
Pastdarg'om	227,9	106,9
Paxtachi	27,0	100,5
Samarqand	48,9	105,9
Nurobod	40,8	100,8
Urgut	262,1	109,9
Toyloq	96,2	116,1

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-iyun)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-iyunida 93,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi **48,6** foizni yoki **1 261,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Samarqand shahrida yuqori o'sish sur'ati **119,9** foizni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **71,4** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024-yil yanvar-iyun)



Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	1 575,9	127,5
Kattaqo'rg'on sh.	112,4	107,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	183,1	106,1
Bulung'ur	120,4	110,1
Jomboy	216,2	106,2
Ishtixon	169,3	107,3
Kattaqo'rg'on	176,1	107,2
Qo'shrabot	82,6	102,6
Narpay	143,8	103,4
Payariq	168,7	109,5
Pastdarg'om	301,4	113,3
Paxtachi	81,0	104,6
Samarqand	347,2	113,4
Nurobod	81,7	109,9
Urgut	241,5	105,5
Toyloq	178,7	105,2



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun)




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **86,2 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	252,5	133,3
Kattaqo'rg'on sh.	20,9	111,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	29,0	108,9
Bulung'ur	32,2	110,6
Jomboy	28,6	108,1
Ishtixon	38,6	107,3
Kattaqo'rg'on	41,2	108,2
Qo'shrabot	21,1	114,6
Narpay	30,5	110,5
Payariq	42,6	109,6
Pastdarg'om	55,6	108,6
Paxtachi	22,3	110,2
Samarqand	53,6	115,6
Nurobod	23,4	108,7
Urgut	72,4	110,1
Toyloq	33,1	110,8

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **71,8** foizni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **868,8** mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,5 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	725,8	127,6
Kattaqo'rg'on sh.	12,0	112,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	16,8	120,7
Bulung'ur	9,4	113,3
Jomboy	7,3	117,6
Ishtixon	10,3	111,5
Kattaqo'rg'on	8,5	115,6
Qo'shrabot	4,5	116,0
Narpay	6,2	117,4
Payariq	9,1	114,9
Pastdarg'om	15,0	114,9
Paxtachi	5,3	113,7
Samarqand	14,3	116,5
Nurobod	4,0	114,3
Urgut	12,6	116,1
Toyloq	7,7	117,2

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **363,2** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,3 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	253,3	130,4
Kattaqo'rg'on sh.	5,5	111,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	5,0	108,6
Bulung'ur	6,3	106,7
Jomboy	5,7	111,7
Ishtixon	5,4	108,4
Kattaqo'rg'on	10,1	109,5
Qo'shrabot	3,1	107,6
Narpay	4,7	105,1
Payariq	5,6	106,7
Pastdarg'om	11,8	118,5
Paxtachi	2,3	110,9
Samarqand	12,2	109,0
Nurobod	17,3	108,9
Urgut	10,0	110,1
Toyloq	4,9	108,2

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **94,7** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	148,5	122,3
Kattaqo'rg'on sh.	11,5	107,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	12,4	112,8
Bulung'ur	10,1	112,6
Jomboy	14,5	112,9
Ishtixon	14,3	112,2
Kattaqo'rg'on	15,6	111,4
Qo'shrabot	9,9	112,3
Narpay	13,2	113,5
Payariq	12,5	112,7
Pastdarg'om	27,4	113,3
Paxtachi	14,2	112,1
Samarqand	32,4	115,2
Nurobod	10,2	112,3
Urgut	31,1	110,1
Toyloq	14,6	113,0

2024-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **5,1 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **67,1 foiz**.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	468,8	91,8
Kattaqo'rg'on sh.	16,5	111,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	6,1	109,7
Bulung'ur	13,3	103,3
Jomboy	13,8	111,7
Ishtixon	3,9	110,7
Kattaqo'rg'on	7,5	110,8
Qo'shrabot	6,8	111,3
Narpay	7,9	110,2
Payariq	5,9	109,9
Pastdarg'om	41,3	111,7
Paxtachi	6,1	111,0
Samarqand	160,6	142,4
Nurobod	7,6	111,5
Urgut	12,8	110,3
Toyloq	42,4	111,1


Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	123,5	114,5
Kattaqo'rg'on sh.	13,6	110,7
tumanlar:		
Oqdaryo	25,1	110,5
Bulung'ur	13,2	108,9
Jomboy	25,8	110,8
Ishtixon	23,5	109,6
Kattaqo'rg'on	22,7	109,3
Qo'shrabot	16,6	111,9
Narpay	22,4	110,6
Payariq	22,1	110,1
Pastdarg'om	39,9	112,3
Paxtachi	12,0	109,1
Samarqand	38,8	111,3
Nurobod	11,4	108,8
Urgut	37,0	110,1
Toyloq	24,7	110,7

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 25,2 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	125,0	109,5
Kattaqo'rg'on sh.	13,4	109,8
tumanlar:		
Oqdaryo	20,9	109,4
Bulung'ur	14,2	109,5
Jomboy	25,1	109,9
Ishtixon	23,4	109,3
Kattaqo'rg'on	24,1	109,4
Qo'shrabot	13,7	109,4
Narpay	22,5	110,0
Payariq	21,7	109,9
Pastdarg'om	38,9	109,7
Paxtachi	12,3	109,0
Samarqand	40,8	111,0
Nurobod	11,2	108,9
Urgut	36,6	110,2
Toyloq	24,8	110,1

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **94,5** mlrd. so'mga oshib, **229,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 66-235-79-35